

“Turonbank” ATB Kengashining
2023-yil “30” ноябрь dagi
“12-54”- son qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruving
2023-yil “24” ноябрь dagi
“1024”- son qarori bilan

“MA’QULLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” № 1116

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING
2024-YILGA MO‘LJALLANGAN**

B I Z N E S - R E J A S I

Toshkent – 2023-yil

Mundarija:

- I. Kirish
- II. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili
- III. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi
- IV. «Turonbank» ATB asosiy ko‘rsatkichlari
- V. 2024-yilda bank transformatsiyasi jarayonlari
- VI. 2024 yil uchun balans moddalari
- VII. 2024 yil uchun daromad va xarajatlar prognozi
- VIII. Ilovalar:
 - a. 1-ilova. 2024-yilgi sof foyda rejasi
 - b. 2-ilova. 2024-yilgi moliyaviy reja
 - c. 3-ilova. 2024-yilgi asosiy vositalarni sotib olish rejasi

Kirish

Mazkur Biznes-reja «Turonbank» ATB 2024-yilda amalga oshirishni rejalashtirayotgan chora-tadbirlarni, shuningdek 2024-yilgi Bankning moliyaviy rejasini o'z ichiga oladi.

«Turonbank» aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinnlarda matnda = Bank) 1990-yil 6-noyabrdan tashkil etilgan.

Bankning bosh ofisi quyidagi manzilda joylashgan: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Abay ko'ch., 4a.

Bank O'zbekiston Banklari assotsiatsiyasi, Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi a'zosi va VISA International xalqaro tashkilotining uyushgan a'zosi hisoblanadi.

«S&P Global Ratings» xalqaro reyting agentligi Turonbank kredit reytingini "Barqaror" prognozi bilan "B/B" darajasida tasdiqladi. Bu Bank faoliyatining samaradorligidan va o'z majburiyatlarini bajarganidan dalolat beradi.

Shuningdek "Ahbor-Reyting" agentligi tomonidan 2022-yil yakunlariga ko'ra "Barqaror" prognozi bilan "UzA+" milliy kredit reytingi berildi. Mazkur reyting Bank kredit salohiyatining yuqoriligini, shuningdek kredit tavakkalchiligi darajasi juda pastligini ko'rsatadi.

I. MAKROIQTISODIY TAMOYILLAR

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 5,8%ga oshgan, bu o'tgan yilning xuddi shu davridagi o'sish sur'atlaridan (6,2%) birmuncha kam.

Geosiyosiy beqarorlik saqlanib turishi jahon iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatayotganiga qaramay, umuman asosiy savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlarda qulay iqtisodiy muhit qaror topdi. Chunonchi, Qozog'istonda YaIM 9 oy yakunlariga ko'ra 4,7%ga, Qirg'izistonda 4,2%ga oshdi. O'zbekistonda infliyatsiya sekinlashmoqda. Yanvar-sentabrda narxlar 5,1%ga oshdi, bu o'tgan 5 yilning xuddi shu davrlaridagidan ko'ra kamroq. Ko'rib chiqilayotgan davrda oziq-ovqat infliyatsiyasi 5,6%gacha (2022-yil 9 oyida – 10%) sekinlashdi. Nooziq-ovqat tovarlarining narxlari 4,8%ga (2022-yilning xuddi shu davrida 7,9%), xizmatlar – 4,7%ga (4,8%) oshdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'sishi 2022-yilning 9 oyidagi 3,3%dan 2023-yilning xuddi shu davrida 11,8%gacha ancha ko'paydi. Markazlashtirilmagan investitsiyalar bo'yicha o'sishning ikki raqamli dinamikasi – joriy yilning yanvar-sentabrida 13,6%ga oshishi kuzatilmoqda. Xususan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish bo'yicha yuqori o'sish ko'rsatkichlari – 16,3% (bunda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 47%ga oshdi), tijorat banklarining kreditlari hisobiga – 27% qayd etilmoqda. Aholi mablag'lari hisobiga investitsiyalar ham 10,6%ga oshdi. Bu yil hukumat kafolati ostidagi qarzlar 23,5%ga oshgani hisobiga markazlashtirilgan investitsiyalar 1,3%ga o'sdi. Shu tariqa, investitsiyalar tuzilmasida markazlashtirilmaganlari ulushi oshishda davom etmoqda – 86,9% (2022-yil yanvar-sentabrida – 85,5%).

Ko'rib chiqilayotgan davrda barcha iqtisodiyot sektorlari ishlab chiqarishning o'sishini namoyish etdi.

Qishloq xo'jaligi ilg'or sur'atlarda o'smoqda – 2022-yilning yanvar-sentabridagi 3,6% o'sishga nisbatan joriy yilning 9 oyida 4,1%. Dehqonchilik, chorvachilik va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish sur'atlari jadallahashdi, baliqchilik xo'jaligida esa birmuncha sekinlashdi – 10,9% (2022-yil yanvar-sentabrida – 18,1%).

2023-yil 9 oyida sanoat 5,7%ga, 2022-yil yanvar-sentabridagi 5,3%ga qaraganda ko'proq o'sdi. Asosiy drayver – ishlov berish sanoati 6,4%ga o'sishni namoyish etdi (2022-yilning 9 oyida – 5,4%), shuningdek suv ta'minoti sektorida ishlab chiqarish, chiqindilarni toplash va utilizatsiya qilish o'sdi. Qazib olish sektorida 0,4%ga o'sish qayd etilgan bo'lsa ham, biroq u o'tgan yildagiga (1,1%) nisbatan kamroq. Elektr ta'minoti, gaz va havo uzatish sektorida o'sish sur'atlari 2022-yil yanvar-sentabridagi 14,7%dan joriy yilning 9 oyida 8,9%gacha sekinlashdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sishi 2022-yil 9 oyidagi 27%dan 2023-yilning xuddi shu davrida 7,7%gacha sekinlashganini qayd etib o'tish zarur. Qurilish sektorida joriy yilda dinamikaning biroz to'xtashi kuzatilmoqda. Chunonchi, 2022-yil 9 oyida o'sish 6,6%ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yanvar-sentabrida 5,6%gacha sekinlashdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12,1%ga (2022-yil yanvar-sentabrida – 15,4%) o'sdi. Barcha sektorlar bo'yicha o'sish kuzatilmoqda. Xususan, axborot va aloqa xizmatlari – 24,8%, ta'lim – 23,5%, moliyaviy xizmatlar – 18,2%, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 10,9%, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar – 10,2%, ya'ni eng ko'p o'sish sur'atlari namoyish etdi. Transport xizmatlari hajmi 7,3%ga o'sdi. Yuk aylanmasi va yo'lovchilar aylanmasi ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari sekinlashdi.

Chakana tovar aylanmasi hajmi 7%ga o'sdi, biroq bu o'tgan yilning xuddi shu davridagi 10,8%ga nisbatan kamroq. 2023-yil yanvar-sentabrida tashqi savdo hajmi 22,1%ga, 44,8 mlrd. dollargacha oshdi. Salmoqli o'sishga qaramay, bu o'tgan yilning xuddi shu davridagi 29,4%dan ko'ra kamroq. Eksport 23,5%ga, 17,7 mlrd. dollargacha, import 21%ga, 27 mlrd. dollargacha oshdi.

Xorijga oltin yetkazib berish qariyb 90%ga, shuningdek mashinalar va transport asbob-uskunalarini 44%ga, xizmatlar 21%ga, tayyor mahsulotlar 20%ga, oziq-ovqat mahsulotlari 19%ga oshgani eksportning o'sishiga olib keldi.

Ayni vaqtida O'zbekiston mashinalar va transport asbob-uskunalarini importini 45%ga, yoqilg'i mahsulotlarini 45%ga, tayyor mahsulotlarni 14%ga, kimyoviy mahsulotlarni 14%ga oshirdi.

Umuman olganda, 9 oy yakunlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyoti rejalashtirilgan rivojlanish vektori doirasida ijobjiy o'sish tamoyilini davom ettirdi. Investitsiya faolligining o'sishi ichki va tashqi muammolarni yengishda ko'mak beradi, bundan tashqari, inflyatsiyani pasaytirish omili saqlanadi, bu ham iqtisodiy muhitning barqarorlashishiga olib keladi.

2024-yil uchun prognoz:

Osiyo taraqqiyot banki 2024-yilda YalM 5,6–5,8%ga (1,3 kvadrillion so'm), 2025–2026-yillarda esa – tegishinchcha, 6,2% va 6,4% o'sishini prognoz qilmoqda. Bu strategik maqsad – 2030-yilga kelib aholi jon boshiba YalM 4 ming dollargacha oshishiga muvofiq keladi. Sanoatning o'sish sur'atlari, kutilayotganidek, 6%ni xizmatlar sohasi – 6,1%ni, qishloq xo'jaligi – 4%ni tashkil etadi. Inflyatsiya 2024-yilda 8–10%, 2025-yilda – 7,5–8,5%, 2026-yilda – 5–7% darajasida bo'lishi kutilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilmoqda, bu, kutilayotganidek, iqtisodiy o'sishni rag'batalantiradi va biznesni kengaytirish uchun zarur kapital bilan ta'minlaydi. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) prognozlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi qariyb 5%ni tashkil etadi. Bu sanoat, qishloq xo'jaligi va investitsiyalar oqib kelishi barqarorligidan dalolat beradi, bu esa mamlakatdagi umumiy farovonlik oshishiga olib keladi.

Makroiqtisodiy indikatorlar	2021-yil	2022-yil	2023*	2024*
Yalpi Ichki mahsulot (YalM), doimiy narxlar (% o'zgarishi)	7,4	5,7	5,3	5,6
Yalpi Ichki mahsulot (YalM), joriy narxlar (mlrd. AQSh dollarri)	69,6	80,4	92,3	103,5
Aholi jon boshiba YalM, joriy narxlar (AQSh dollarri)	2 014	2 279	2 563	2 817,5
Umumiy investitsiyalar / YalM (%)	40,1	39,0	38,4	38,4
Inflyatsiya, o'rtacha iste'mol narxi (% o'zgarishi)	10,8	11,4	11,8	9,9
Inflyatsiya, davr oxiriga iste'mol narxi (% o'zgarishi)	10,0	12,3	11,9	8,0
Tovarlar importi hajmi (% o'zgarishi)	4,2	14,2	15,3	16,5
Tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi (% o'zgarishi)	5,0	15,6	23,2	16,0
Ishsizlik darajasi (%)	9,6	8,9	8,4	7,9
Aholi (mln. kishi)	34 559	35 271	36 025	36 745
Davlatning umumiy daromadlari / YalM (%)	25,9	29,4	27,0	27,6
Davlatning umumiy xarajatlari / YalM (%)	30,5	33,4	29,9	30,5

Manba: Jahon bankining prognoz ma'lumotlari.

II. O'ZBEKISTON BANK SEKTORI

Kapital bo'yicha O'zbekiston banklari uchun yangi talablar, avtokreditlar bo'yicha talablarning qat'iy lashtirilishi, so'm devalvatsiyasi, shuningdek qarzlar va omonatlardan bozorida yuqori stavkalar tamoyilining davom etishi 2023-yil III choragi davomida asosiy hodisa bo'ldi.

O'zbekiston banklarining aktivlari sentabr yakunlariga ko'ra yil boshidagiga nisbatan 10,6%ga, kredit portfeli – qariyb 16%ga, depozit portfeli esa – atigi 2,1%ga oshdi. To'qqiz oyda foydani o'sishi bois bank tizimi 12,6% naf ko'rdi.

Depozitlar

O'zbekistonda 1-oktabrga kelib bank depozitlari portfeli 2,1%ga – 216,7 dan 221,3 trln. so'mga o'sdi. Bunday sezilarsiz o'sish aholi hisobiga ta'minlandi, ularning hisobraqamlaridagi mablag'lar summasi 63,1 dan 77,2 trln. so'mgacha (+22,3%) o'sdi. Yuridik shaxslarda kamayish kuzatildi – 153,6 dan 144,16 trln.gacha (-6,1%). III chorakda jiddiy so'm devalvatsiyasi ro'y berdi, 2023-yil boshidan so'm dollarga nisbatan 8,5%ga (2022-yilda – 4%) devalvatsiyalandi. Depozitlarning bir qismi xorijiy valyutada (32%) saqlanishi bois qadrsizlanish milliy valyutaga qayta hisoblaganda portfel o'sishiga olib keladi.

Yuqori stavkalar depozit bazasi o'sishiga olib keldi, fuqarolarning muddatli omonatlari bo'yicha o'rtacha daromadlilik – 21,7%, yuridik shaxslarning omonatlari bo'yicha – 17,1%dan.

Kreditlar

Tijorat banklarining kredit portfeli bu yil qariyb 16%ga oshdi. O'sishni so'm devalvatsiyasi ham ta'milaganini qayd etib o'tamiz, sababi jami hajmning 45%ini xorijiy valyutadagi qarzlar tashkil etadi.

Aholiga kreditlar ilgarigidek segment o'sishiga jiddiy hissa qo'shmoqda. Bu yil fuqarolar portfeli 101 dan 139,1 trln.gacha (+37,8%) o'sdi. Ipoteka kreditlari bo'yicha portfel 18,3%ga, mikroqarzlar bo'yicha – 47,8%ga, ta'lim ssudalari bo'yicha – 75%ga o'sdi. Iste'mol kreditlari esa 80%ga ortdi. Bunda iste'mol krediti berishda avtokreditlash salmoqli ulush egallaydi – 40,2%. Shu munosabat bilan MB avtokreditlar bo'yicha talablar kiritdi – banklar minimal boshlang'ich badal bilan yoki usiz takliflar sonini qisqartirishi shart.

Energiya yetishmovchiligi munosabati bilan dolzarb tus olayotgan turar joylar tomlarida o'rnatilayotgan quyosh panellarini kreditlash faol rag'batlantirilmoqda. 2023-yilda 1 trln. so'mdan ortiq summada yoki fuqarolarga berilgan qarzlar umumiy hajmida 0,4% miqdorida yashil kreditlar berildi.

Sentabrda jismoniy shaxslar uchun so'mdagi kreditlar bo'yicha o'rtacha stavka 24,2%ga, yuridik shaxslarda esa 21,6%ga yetdi. Sentabrda yil oxirigacha muddatga berilgan valyuta qarzlari (faqat yuridik shaxslarga beriladi) 9,5 dan 9,7%gacha qimmatlashdi, uzoq muddatli bozorda esa, aksincha, 9,2 dan 8,8%gacha arzonlashdi.

Kapital

Bu yil moliyaviy institutlarning jami kapitali qariyb 12%ga o'sdi va 1-oktabrga kelib 89 trln. so'mni tashkil etadi.

2023-yil 1-sentabrdan O'zbekistonda banklar ustav kapitali miqdoriga oid talablar o'zgardi, endi uning minimal miqdori 200 mlrd. so'm (ilgari 100 mlrd. so'm edi). 2024-yil 1-apreldan pog'ona 350 mlrd.gacha, 2025-yil boshidan esa 500 mlrd.gacha oshadi. Statistika ko'rsatishicha, O'zbekiston banklarining 40%i 2025-yilgacha qo'shimcha kapitalizatsiyalashni o'tkazishlari kerak.

Foyda

O'zbekiston banklarining jami foydasi sezilarsiz darajada kamaydi. 2023-yilning birinchi yarim yilligida moliyaviy muassasalar yil hisobida 28%, to'qqiz oyda esa 12,6% ko'proq pul topdi. Bu O'zbekiston Markaziy banki tomonidan kreditlar toifalari bo'yicha rezervlarni shakllantirishga qo'yildigan talablarning qat'iylashtirilishi bilan izohlanadi. Mamlakat banklarining 1-oktabrdagi holatga ko'ra kreditlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlari bahosi 15,5 trln. so'mni tashkil etdi. Bu bir yil avvalgi ko'rsatkichdan qariyb uchdan bir qismga ko'p.



III. «TURONBANK» ATB ASOSIY KO'RSATKICHLARI

«Turonbank» ATB – aktivlari miqdori bo'yicha O'zbekiston banklari orasida 13-o'rinni egallagan davlat tijorat banki. Bankning mijozlar bazasi bozorning barcha segmentlari, yuridik va jismoniy shaxslardan tashkil topgan. Bugungi kunga kelib bankda qariyb 1500 nafar xodim ishlaydi. Bank O'zbekistonning barcha hududlarida 20 ta filialga ega.

Turonbank II guruh banklari tarkibiga kiradi, quyidagi jadvalda ushbu guruh banklarining ayrim ko'rsatkichlari solishtirilgan.

T/r	Bank nomi	Aktivlar	Kapital	Kredit portfeli	Depozit portfeli	Sof foyda
1	«Turonbank» ATB	14 785,8	1 872, 1	10 903, 4	3 485, 0	32, 7
2	«Aloqabank» AJ	16 907,3	2 166, 7	10 880, 6	8 602, 7	231, 2
3	«Ipak yo'li» AITB	15 328,8	2 598, 3	10 629, 6	6 959, 2	586, 8
4	«KDB Bank O'zbekiston» AJ	9 987,0	1 185,2	2 142, 6	7 494, 9	304, 4
5	«Trastbank» ATB	8740,7	2 154, 8	4 836, 6	6 165, 4	595, 5
6	«Orient Finans» XATB	11 190,5	2 094, 6	7 546, 7	7 264, 5	452, 2
7	«Invest Finans Bank» ATB	8 935,9	1 113, 3	6 196, 5	6 867, 4	183, 4
8	«Asia Alliance bank» ATB	7 206,3	714,2	3 161,0	5 569, 5	143, 5

9	«Tenge bank» ATB	6 015,5	1 246,2	3 827,6	1716,9	21,8
10	«Davr-bank» XATB	5 645,4	938,5	4 474,0	2 429,2	302,8


Manba: * 2023-yil 1-oktabrdagi holatga ko‘ra «Axbor-reyting» reyting agentligi axboroti.

I guruh banklariga yuqori aktivlarga ega moliyaviy muassasalar kiradi. Ushbu guruhga «O‘zmilliybank», «O‘zsanoatqurilishbank», «Asakabank», «Agrobank», «Ipoteka-bank», «Xalq banki», «Biznesni riovjlantirish banki», «Mikrokreditbank», «Kapitalbank» va «Hamkorbank» kiradi.

Qolgan tijorat moliyaviy muassasalarini III guruh banklariga kiritish mumkin. Ular «Universal Bank», «Ziraat Bank Uzbekistan», «Garant Bank», «Okto Bank», «Anor Bank», «TBS Bank», «Saderat Bank», «Poytaxt Bank», «Madad Invest Bank» va h.k.


Bankning jami aktivlari

2022-yil yakunlariga ko‘ra jami aktivlar 12,8 trln. so‘mni tashkil etdi. 2023-yilning 3 choragi yakunlariga ko‘ra esa – 14,7 trln. so‘mni, o‘sish 14,8% yoki 1,9 trln. so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichning o‘sishi Bankning faol kredit siyosati bilan bog‘liqligini qayd etib o‘tish zarur, bunda jami aktivlarda kredit portfeli ulushi 74%ni tashkil etadi.



Bankning jami kapitali


Bank barqarorligining muhim ko‘rsatkichi hisoblangan uning kapitali 2022-yilda 1,879 trln. so‘mni tashkil etdi. 2023-yilning 3 choragida 1,872 trln. so‘mni tashkil qildi, 2023-yil oxirigacha ko‘rsatkich 2,1 trln. so‘mga yetishi kutilmoqda.



Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti 0,9%ga pasaydi va 14,6%ni tashkil etdi.

Bankning kredit portfeli

Rejali ish olib borilishi natijasida Bankning kredit portfeli 2023-yil uchinchi choragi oxiriga kelib 1,6 trln. so‘mga o‘sdi va 10,9 trln. so‘mga yetdi. Yil oxirigacha Bank portfeli 11,5 trln. so‘mni tashkil etishini prognoz qilmoqda. Portfelning o‘sishi kichik va o‘ta biznes, shuningdek chakana biznes mijozlarini kreditlash hisobiga ta’milanganini qayd etib o’tamiz.



Kredit portfeli	Dek-22	Sent-23	Dek-23
Korporeyt	4016	4722	4906.8
KO‘B	3718.4	4268.8	4442.5
Chakana	1571.4	1771.8	1980.7
Jami	9305.9	10762.6	11330

Korporativ kredit portfeli 4,9 trln. so‘mni tashkil etdi va yil boshidan 18%ga o‘sdi. Sanoat va qurilish asosiy o‘sish sektorlari hisoblanadi.

KO'B kredit portfeli 4,4 trln. so'mni tashkil etdi va yil boshidan 15%ga o'sdi. Qishloq xo'jaligi sektori, shuningdek savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasi asosiy o'sish sektorlari hisoblanadi.

Chakana kredit portfeli yil boshidan 13%ga o'sdi va 2,8 trln. so'mdan oshdi. Yil davomida xususiy mijozlarga 980 mld. so'm miqdorida kreditlar berildi.


Ipoteka kreditlari portfeli 37,2%ga o'sdi, uning hajmi esa 790 mld. so'mni tashkil etdi.

Iste'mol kreditlari portfeli (avtokreditlar) yil boshidan 158,3%ga o'sdi va 872 mld. so'mni tashkil etdi.

Kredit portfeli sifati barqarorligicha qoldi — muddati o'tgan qarz ulushi 2,81% darajasida bo'ldi.

Bank depozit portfeli

2023-yil yanvar-sentabrida Turonbank depozitlari portfeli qariyb 3,5 trln. so'm ko'rsatkichiga yetib, 0,2%ga kamaydi.



Jismoniy shaxslarning mablag'lari 1,4 trln. so'mni tashkil etdi va yil boshidan 13%ga o'sdi.


Yuridik shaxslarning mablag'lari 2 trln. so'mga yetib, 181 mld. so'mga yoki 8%ga kamaydi. Buning asosiy sababi xususiy korxonalar hisobraqamlaridagi qoldiqlarning kamayishi hisoblanadi.

Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari

Sof foiz xarajatlari 3-chorakda 323,1 mld. so'mni tashkil etdi, yil oxirigacha ushbu ko'rsatkich 30%ga o'sishni ko'rsatadi.

Operatsion xarajatlar 2023-yilning 9 oyida 325,1 mld. so'mni tashkil etdi, yil oxirigacha ushbu ko'rsatkich 2023-yilda xodimlarning ish haqi oshishi, shuningdek transformatsiya doirasida xarajatlar oshishi sharoitida 23%ga o'sishni ko'rsatishi prognoz qilinmoqda.

KP segmentlar kesimida, 3-chorak 2023



2023-yilning 3-choragida xarajatlarning daromadlarga nisbati (CIR) 58,6%ni tashkil etdi, yil oxirigacha prognoz – 59,2%.

2023-yilning 9 oyida Turonbankning **sof foydasi** 33 mlrd. so‘mni tashkil etdi, bunda **Kapital rentabelligi** 1,8% bo‘ldi. 2023-yil oxirigacha 55 mlrd. so‘m olish rejalashtirilmoqda, bunda tuzatish kiritilgan foyda rejasi 55 mlrd. so‘m. **XMHSGa muvofiq, rezervlarga qo‘srimcha xarajatlar yaratish va kreditlarni qayta baholash** zarurati sof foyda bo‘yicha rejali ko‘rsatkichni qayta ko‘rib chiqishga sababchi bo‘ldi va 2023-yilning 9 oyida 182 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

IV. 2024-YILDA BANKNING BARQAROR RIVOJLANISHI

So‘nggi yillarda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda ham iqlimdagি salbiy o‘zgarishlar masalasi, havo ifloslanishi va energetika inqirozi muammolari ko‘tarilmoqda. Shu bilan birga kompaniyalarining atrof-muhitga oid masalalarni boshqarishga, ularning jamiyat va mahalliy hamjamiyat bilan o‘zaro munosabatlariga, xodimlarining mehnat sharoitlariga qiziqishi ortib bormoqda.

Bank uzoq muddat davomida barqaror rivojlanishni ta’minalash uchun o‘z faoliyatining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini uyg‘un holda boshqarishga intilmoqda. Barqaror rivojlanish sohasidagi vazifalarni hal etish chog‘ida Bank o‘z missiyasiga, Bankning Rivojlanish strategiyasiga va xalqaro axloq normalariga, barqaror rivojlanish sohasidagi prinsiplarga tayanmoqda.

Turonbank bu yillar davomida yashil va energiya samarador yo‘nalishlarga urg‘u bergen holda moliyalashtirishni oshirish, tadbirkorlikni va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanishga hissa qo‘shib kelmoqda.

Bankning barqaror rivojlanishga yondashuvi aksiyadorlarning barqaror daromad olishini, xodimlar uchun munosib turmush darajasini, mijozlar uchun xizmat ko‘rsatish sifatini va umuman jamiyatga ijobiy ta’sirni ta’minalash o‘rtasida muvozanat saqlashdan iborat.

2023-yilda Bank barqaror rivojlanish (ESG) va yashil iqtisodiyot bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqdi, u 2024-yilda davom ettiriladi. Asosan quyidagilarga e’tibor beriladi:

- **Environmental** yoki atrof-muhitni muhofaza qilish Bank ekoliya haqida qanchalik qayg‘urayotganini va o‘ziga yetkazilgan ziyonni qisqartirishga qanday urinayotganini belgilaydi.
- **Social** yoki jamiyat manfaatlarini himoya qilish Bankning xodimlarga, yetkazib beruvchilarga, mijozlarga, hamkorlarga va iste’molchilarga munosabatini ko‘rsatadi.
- **Governance** yoki korporativ boshqaruv hisobotlarning shaffofligini, top-menejmentda xotin-qizlarning ishtirokini, aksiyadorlar bilan munosabatlarni va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni anglatadi.

V. 2024-YILDA BANK TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARI

Bank transformatsiyasi jarayonida XMK ko‘magida o‘zgartirish va yaxshilashni talab qiluvchi muhim sohalarni belgilashda qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladigan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

2023-yilda Bank Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan birgalikda Bankni Rivojlantirishning strategik rejasini tasdiqladi, unda quyidagi ustuvor strategik maqsadlar belgilandi.

Korporativ boshqaruv

Korporativ boshqaruv tizimini, Kuzatuv kengashi va Kengash qo'mitalari, korporativ kotib rolini kuchaytirish, shu jumladan ekologik va ijtimoiy tavakkalchiliklarni nazorat qilish hamda barcha aksiyadorlarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlovchi tizimlarni yaratish.

Strategiya, moliya va loyihalarni boshqarish ofisi

- Strategiya:** strategik rejani amalga oshirish va amalga oshirilishini monitoring qilish uchun strategik rejalashtirish jarayonini joriy etish.
- Moliya:** 2024-yilda texnik topshiriqlarni ishlab chiqishni yakunlash hamda zamonaviy jarayonlarni, shu jumladan quyidagi modullarni: transfert narxlarni belgilash, budgetlash, sarf-xarajatlarni taqsimlash, mahsulot rentabelligi, mijozning foyda olishi va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalangan holda MIS biznes-yo'nalishini joriy etish hisobiga moliyaviy va boshqaruvga oid hisobotlarni joriy etish rejalashtirilgan.
- Loyihalarni boshqarish ofisi:** barcha yirik loyihalarni samarali amalga oshirish va monitoring qilish hamda o'zgartirishlarni boshqarishda yordam berish uchun Bankda loyihalarni boshqarish madaniyatini joriy etish.

Xodimlarni boshqarish

2024-yilda Bank samarali ishlashi uchun kadrlar tizimini, jarayonlar va tartib-taomillarni takomillashtirishni, Bankning barcha darajadagi xodimlari uchun KPI joriy etishni davom ettirish va rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish rejalashtirilmoqda.

Biznes yo'nalishlar

Mijozlar bazasini Bank filiallari tarmog'i qo'llab-quvvatlaydigan 3 ta segment – korporativ, KO'B va chakana segmentga bo'lishni nazarda tutuvchi yangi tijorat biznes-modelini joriy etish. Maqsadlarning muhim yo'nalishlari:

- Chakana segment:** chakana biznesning, ayniqa badavlat toifaga kiruvchi mijozlar ulushining o'sishi raqamli kanallarni, qo'shimcha tovarlarni sotishni rivojlantirishni kuchaytirish, plastik kartalardan va boshqa innovatsion mahsulotlardan foydalanuvchi mijozlar soni hisobiga ta'minlanadi.
- KO'B segmenti:** KO'B kredit portfeli KO'Bga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu segmentda savdo-sotiq rolini va funksiyalarini kuchaytirish hisobiga o'sadi. Asosiy savdo-sotiq kanali sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish taklif etiladi.
- Korporativ segment:** korporativ banking e'tiborini mijozning to'liq hamyonini (aylanmasini) maksimallashtirishga hamda korporativ segment mablag'laridan chakana, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish mexanizmi sifatida foydalanishga qaratish.
- Filiallar tarmog'i:** sotish va strategik mijozlar segmentlariga xizmat ko'rsatishning samarali dastagiga aylantirish maqsadida filiallar tarmog'i tuzilmasini qayta ko'rib chiqish.

2024-yilda filiallar tarmog'ini kapital ta'mirlashga 70,1 milliard so'm yo'naltiriladi. Shundan 50,0 millardi bosh ofisga, 0,6 mlrd. so'm Shahrisabz bank xizmatlari markaziga, 4,5 mlrd. so'm Qarshi BXMa, 5,5 mlrd. so'm Chilonzor bank xizmatlari markaziga, 5,5 milliard so'm Yashnobod

BXMga, 0,5 milliard so‘m Farg‘ona BXMga, 2,0 mlrd. so‘m Buxoro BXMga, 0,2 mlrd. so‘m Urganch BXMga, 0,8 mlrd. so‘m Andijon BXMga va 0,5 mlrd. so‘m Nukus BXMga.

Bundan tashqari, 2024-yilda yangi qurilishga 35,0 mlrd. so‘m ajratiladi. 20,0 milliard so‘m Mirobod bank xizmatlari markaziga, 5,0 mlrd. so‘m Termiz BXMga, 5,0 mlrd. so‘m Urganch BXMga va 5,0 mlrd. so‘m Qarshi BXMga.

G‘aznachilik va moliya

2024-yilda Bankning vazifasi – g‘aznachilik funksiyasini, ayniqsa aktivlar va passivlarni boshqarish (ALM), likvidlik va u bilan bog‘liq transfert narxlarni belgilashni boshqarishga nisbatan (FTP), shuningdek moliyaviy muassasalar hamda xorijiy valyuta va mahsulotlarni boshqarish funksiyalari borasida mustahkamlash.

Tavakkalchiliklarni boshqarish

Tavakkalchiliklarni boshqarish funksiyalarini kuchaytirish, tavakkalchilik ishtahasini, tavakkalchiliklarni baholash metodologiyasini belgilash va ularni pasaytirish. Moliyaviy va operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini shakllantirish. Stress-testdan o‘tkazish va inqirozga qarshi boshqaruv metodologiyalarini mustahkamlash.

- 2024-yilda bank tavakkalchiliklarini samarali boshqarish maqsadida barcha turdagি: kredit, valyuta, operatsion, bozor va h.k. tavakkalchiliklarni boshqarishni nazarda tutuvchi yangi siyosatni ishlab chiqish va tasdiqlash rejalashtirilmoqda.

Kredit jarayonlari

2024-yilda har bir mijozlar segmenti uchun markazlashtirilgan anderrayting funksiyasini joriy etish, boshqaruvni takomillashtirish va muammoli kreditlar bilan ishlashni ta‘minlash hisobiga kredit jarayonlarini yaxshilashga urg‘u beriladi.

Raqamli texnologiyalar va IT

IT-funksiyalarni mustahkamlash va raqamli strategiyani joriy etish hisobiga barcha jihatlarda Turonbankning raqamli va IT-madaniyatini joriy etish. 2024-yilda quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- Bankning yaqin 3 yillik biznes-maqsadlariga muvofiq, ATni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini belgilash maqsadida AT-strategiyasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
- IT-audit o‘tkazish.
- Samarqand BXMDa pilot filialni ishga tushirish uchun biznes-jarayonlar zaruriy avtomatashtirilishini ta‘minlash.
- Kontakt markazi bo‘yicha yechimni sotib olish va joriy etish.
- CRM yechimni sotib olish va joriy eta boshlash.
- Collection jarayonlarini avtomatashtirish uchun yechimni sotib olish va joriy etish.
- Colvir ABS uchun rad etishga chidamli klaster qurish.
- ATDning yangi tashkiliy tuzilmasini joriy etish va u to‘g‘risida yangi nizom ishlab chiqish.

- Helpdesk va Service desk servis katalogini ishlab chiqish hamda avtomatlashtirilishi uchun yechimni joriy etish.
- Joriy va yangi tizimlar bo'yicha kompetensiya markazlarini qurish.

Operatsion samaradorlik

Operatsion samaradorlikni boshqarish tizimini joriy etish va filialning operatsion vazifalarini Bosh ofis darajasida markazlashtirish orqali operatsion samaradorlikning maqbul ko'rsatkichiga (CIR) erishish, bu savdo-sotiqni ko'paytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun filiallarni ozod qilish imkonini beradi.

2024-yilda barcha biznes-jarayonlarni markazlashtirish yo'li bilan Xalqaro moliya korporatsiyasi maslahatchilari bilan hamkorlikda Samarqand BXM misolida transformatsiya pilotini ishga tushirish, so'ng Samarqand BXM misolida boshqa BXMLar faoliyatini transformatsiyalash yo'li bilan sarf-xarajatlarni maqbullashtirish rejalashtirilmoqda.

VI. 2024-YILGI BALANS HISOBOTI MODDALARI

1. BANKNING JAMI AKTIVLARI

2023-yil oxiriga kelib jami aktivlar 16,2 trln. so'mni tashkil etadi. 2024-yilda aktivlar qoldig'i 19,6 trln. so'm darajasida bo'lishi kutilmoqda, o'sish esa 21,0 foiz darajasida bo'lishi rejalashtirilmoqda. Ushbu o'sish kredit portfelining barqarorligi bilan baholanmoqda.

AKTIVLAR	Dek. 22	Sent. 23	%	
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	12878,7	14784,8	16186,7	19584,4
O'zR MBdan olinadigan	569,2	569,9	615,0	780,3
Boshqa banklardan olinadigan, sof Oldi-sotdi uchun qimmatli qog'ozlar	630,8	953,3	1425,4	1682,5
Kreditlar va lizing operatsiyalari, sof	680,4	734,5	801,9	1075,8
Korporativ	370,9	163,7	236,9	319,3
KO'B	9305,9	10762,6	11325,5	13435,3
Chakana	4016,0	4722,0	4906,8	5337,3
Ehtimoliy zararlar rezervi	3718,4	4268,8	4442,5	5247,6
Asosiy vositalar	1571,4	1771,8	1976,1	2850,4
Boshqa aktivlar	137,1	145,2	175,3	290,2
	516,5	606,9	606,9	792,8
	804,9	993,9	1175,1	1498,3
				35%
				21%

Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari 2024-yil oxiriga kelib 2023-yil oxiridagi prognozga nisbatan 780,3 mlrd. so'mni tashkil etadi (27%ga oshish).

Qimmatli qog'ozlar – Bankning investitsiya faoliyatini faollashtirish rejalashtirilmoqda. O'sish 35% va 319,3 mlrd. so'mni tashkil etadi.


Kredit portfeli – 2024-yil oxiriga qoldiq 13,4 trln. so‘mni tashkil etadi. Yil oxirigacha 19%ga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bankning kredit balansi 2023-yil oxiriga kelib 11 milliard dollarni, 350,0 milliard so‘mni tashkil etadi va 2024-yilga kelib ushbu raqam (prognoz) 13 435,3 mlrd. so‘mni yoki 19 foizga o‘sishi kutilmoqda.

Bank ichki resurslar hisobiga hamda xorijiy moliyaviy va bank institutlari mablag‘larini jalb etish hisobiga milliy va xorijiy valyutalarda kredit operatsiyalarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda. 2024-yilda Bank kredit portfelini (brutto) 2,1 trln. so‘m ekvivalentidagi summagacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Bank tasdiqlangan Kredit siyosatiga asosan o‘z kredit faoliyatini amalga oshiradi, uning maqsadi samarali, foyda keltiradigan kredit faoliyatini ta’minalash, kredit tavakkalchiliklarini nazorat qilish va ularni pasaytiruvchi dastaklardan foydalanish, shu jumladan beriladigan kreditlar toifalari va turlarini diversifikatsiyalash, ular bo‘yicha qabul qilinadigan ta’minot hisobiga, Bank likvidligini belgilangan normativ darajasida tutib turish hisoblanadi.

Kreditlar berish va loyihami moliyalashtirish



2024-yilda kredit faoliyati va loyihami moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun «Turonbank» ATB 4 700,0 mlrd. so‘mlik summadagi kredit va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Natijada 20 mingta ish o‘rnini yaratish ko‘zda tutilgan. Shundan 1 625,0 mlrd. so‘m (35%) kichik va o‘rta biznesga, 1,0 trln. so‘m (21%) – yirik korxonalarga, 835 mlrd. so‘m (18%) – qisqa muddatli aylanma kapitalga va 1 240,0 mlrd. so‘mni (29%) chakana kreditlarga yo‘naltirish rejalashtirilmoqda. 2024-yilda qishloq xo‘jaligi hamda savdo-sotiq va umumiyyovqatlanish, qurilish va boshqa xizmatlar, turizm va transport, ta’lim va sog‘liqni saqlash kiradigan xizmatlar ko‘rsatish sohasini qo’llab-quvvatlash rejalashtirilmoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga hissa qo‘sishi kutilayotgan bir qator yirik ishlab chiqarish va servis korxonalarini misol sifatida keltirish mumkin.


"BERAD AGRO" MCHJ QK

Meva-sabzavotlari yetishtirish, qayta ishlash,
qadoqlash va eksport qilish loyihasi
(Samarqand, Surxondaryo va, Toshkent viloyatlariда)



"BUXARA REAL MOTO" MCHJ

Mototransport ishlab chiqarish, yuq motorollerlari uchun
ehtiyoj qismilar ishlab chiqarishni tashkil etish (Buxoro viloyati,
Qorovulbozor tumani)



Korxonalar yillik guvvati 12 000 dona
va 30 xil turdag'i mototransport
vositalarini ishlab chiqarilishi yo'lg'a
qo'yildi.

Xususan, «BERAD AGRO» MCHJ. 30,1 million dollar miqdoridagi bank krediti hisobiga zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi, shuningdek aholi qadoqlangan va konservalangan meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlanadi va eksport yo'lga qo'yiladi. Loyihani amalga oshirish natijasida 1200 tadan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Bundan tashqari, «BUXARA REAL MOTO» MCHJning avtotexnika va yuq skuterlari uchun ehtiyoj qismilar ishlab chiqarish bo'yicha 122,0 mld. so'mlik qiymatdagi bank loyihasi amalga oshirildi, 61,0 mld. so'mni o'z mablag'lari hisobiga realizatsiya qilish ko'zlanmoqda. Korxonaning yillik guvvatini 12 ming birlikka oshirish rejalashtirilmoqda. Ayni vaqtida 30 dan ortiq turdag'i avtotransport ishlab chiqarilmoqda.


AMALGA OSHIRILADIGAN YANGI LOYIHALAR (mild. so'm)

"ALP TEKNO SERVIS" XK MCHJ		"AGRO BAXT" MCHJ		"SHASHLIK UZ" MCHJ	
Televizor uchun mikroksamolar ishlab chiqarish, Qarshi shahri		Isslqxona tashkil etish, Samarqand viloyati, Paxtachi tumani		Umumiy ovqatlanishi tarmog'ini kengayrirish, Samarqand shahri	
 Loyha qiymati	31,6	 Loyha qiymati	240	 Loyha qiymati	20
 O'z mablag'i	20	 O'z mablag'i	180	 O'z mablag'i	10
 Bank krediti	11,6	 Bank krediti	60	 Bank krediti	10
 Ish o'rni nafar	150	 Ish o'rni nafar	300	 Ish o'rni nafar	300
 Ish/chiq mahsulot soni	120 ming.dona	 Hosildorlik (pom/dor)	2 400 tonna	 Savdo nuqtalari soni	12 ta
 Eksport hajmi	4,1 min. doll	 Eksport hajmi	2,1 min. doll	 O'quv markazi tashkil etilgan	
 O'quv markazi tashkil etiladi		 Mайдони	50 tekhar	 2024-yil II chorak	
 2024-yil I chorak		 2024-yil II chorak			


Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan loyihalarga ajratilgan mablag'lar aholini kelgusida sifatli xizmatlar va mahsulotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

RESPUBLIKA HÜDÜDLARIDA TASHKIL ETILGAN LIMONZORLAR


Tashkil etilgan yer maydoni (hektar)




Limon narxi (1 tonna – AQSh dollarri)



Yetishtirilgan limon hajmi (ming tonna)




Eksport hajmi (ming tonna)



Oxirgi 3 yil davomida 1 422 ta tadbirkorga 1,4 trln. so'mlik kreditlar ajratildi va 8 800 nafar aholi bandligi ta'minlandi

Limonchilik sohasida Namangan viloyatining 11 ta tumanida, Farg'on'a viloyatining Bag'dod tumanida va Surxondaryo viloyatining 10 ta tumanida termos usulida issiqxonalar qurib boshlishi davom ettiriladi



TURONBANK HOMIYLIGI ASOSIDA LIMONCHILIK SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR



M. Faxrudinov va N. Faxrudinovlar tomonidan ilmonning Turon, apelsininning O'zbekiston, mahdorining Toshkent va Yangi O'zbekiston hamda greypfrutning Pomegranate Renaissance (III) yangi neylari yaratildi



O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti qoshida sitrus o'simliklari sinash va ularning ko'chalarini intensiv ko'payilish laboratoriysi ya ko'chabxona ishligi tushshirildi, faoliyat yana kerigaytirildi



Limonning suvsizlikka va sovuqqa chidamli navlarin yaratish bo'yicha ochiq dalalarda tajriba ishlari davom ettirilmoqda. Ikkito bosqich muvaffaqiyatl o'tdi

BALIQCHILIK SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISHLAR

2024-YIL



252 ta loyiha




I

Buxoro viloyatining Qorako'l va Gazli tumanlarida ikkita ko'l tashkil etilgan bo'lib, uning maydoni 150 hektarni, suv hajmi esa 10 mln. kubni tashkil etadi. Hozirda ushu baliqchilik ko'lida 200 tonna baliq yetishtirilmoqda



II

Keyingi yillarda ushu baliqchilik ko'lida 1 000 tonna baliq yetishtirish maqsadida "TO'PALANG HPD HOLDING" MCHJga 10 mld. so'm kredit ajratish rejalashtirilgan. Buning natijasida 300 ta doimiy va 700 ta mavsumiy, jami 1 000 ta yangi ish o'rinnari yaratiladi



1,1 trln. so'm loyiha qiymati



3 000 ta yangi ish o'rni

Sloveniya tajribasi asosida 50 ta zamonaviy kichik hoyuzlar ishga tushiriladi (bir loyihaiga 50 ming dollar).

Surxondaryoda 6 ta rejallashtirganimiz bo'yicha ishlarni boshladik

So‘nggi yillar davomida Turonbank joriy kredit portfeli sifatini yaxshilash bo‘yicha izchilish olib bordi.

Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti yuridik va jismoniy shaxslarning muammoli qarzlarini undirmoqda.

Bankning muammoli portfeli bilan ishlash

Prinsiplar

- Bankning kredit portfeli sifatini yaxshilashga e’tibor qaratish.
- Muammoli aktiv qiymatini minimal chiqim bilan maksimal darajada imkon qadar tiklash.
- Muammoli qarzlar bilan ishlash bo‘yicha chora-tadbirlarning samarali, operativ, o‘z vaqtida amalga oshirilishi.
- Kredit portfelida NPL ulushini 3,5%dan ortiq bo‘lmagan darajada cheklash.
- Muammoli qarzlar bilan ishlash chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so‘zsiz rioya etish.

Usullar


- Sudgacha tartibga solish va boshlang‘ich chora-tadbirlar, ular qarzdorlarni muammoli qarzlarni qoplashga rag‘batlantirishga oid turli xil aksiyalar o‘tkazishni o‘z ichiga oladi (Soft Collection).
- Qarzni restrukturizatsiya qilish.
- Hard Collection.
- Sudda ish yuritish, to‘lov talabnomalarini taqdim etish, ijro ishi yuritish (Legal Collection).
- Garovdagi mol-mulkni realizatsiya qilish.

2. Majburiyatlar

2023-yil oxiriga kelib bank majburiyatları 14,3 trln. so‘mni tashkil etadi. 2024-yilga kelib 17,3 trln. so‘m darajasida bo‘lishi kutilmoqda, o‘sish esa 21,0 foiz darajasida bo‘lishi rejalashtirilmoqda.

	Dek.22	Sent. 23		%
MAJBURIYATLAR	10999,7	12912,7	14263,2	17294,1
Talab qilib olinguncha depozitlar	1334,7	9 75,6	1061,5	1653,1
<i>Korporativ</i>	<i>574,4</i>	<i>378,3</i>	<i>403,0</i>	<i>635,0</i>
<i>KO‘B</i>	<i>481,0</i>	<i>340,7</i>	<i>371,7</i>	<i>520,2</i>
<i>Chakana</i>	<i>270,8</i>	<i>239,4</i>	<i>286,9</i>	<i>497,9</i>
Muddatli depozitlar	2154,7	2474,5	2699,5	3412,4
<i>Korporativ</i>	<i>981,4</i>	<i>1044,5</i>	<i>1135,3</i>	<i>1271,2</i>
<i>KO‘B</i>	<i>158,5</i>	<i>211,0</i>	<i>239,4</i>	<i>376,8</i>
<i>Chakana</i>	<i>1014,8</i>	<i>1219,0</i>	<i>1324,8</i>	<i>1764,5</i>
O‘zR MBga to‘lanadigan	8,1	75,4	79,4	94,2
Boshqa banklarga to‘lanadigan	1459,9	1945,0	2797,6	3246,5
To‘lanadigan kreditlar va lizing operatsiyalari	5755,5	6758,1	6885,2	7759,1
Boshqa majburiyatlar	286,8	684,0	740,0	1128,7

Mijozlarning mablag‘lari 2024-yil oxiriga kelib 2023-yil oxiridagi prognozga nisbatan 5,06 trln. so‘mni tashkil etadi (35%ga oshish).




Talab qilib olinguncha hisobraqamlar 2024-yilda 55%ni tashkil etadi. Asosiy o’sish drayverlari – chakana – 74%, korporeyt – 58%. KO’B o’sishi – 38%.

Muddatli depozitlar 2024-yilda 26%ni tashkil etadi. Asosiy o’sish drayverlari – KO’B – 55%, chakana – 33%. Korporativ segment o’sishi – 12%.

Kredit muassasalari va O’zMB mablag‘lari – o’sish rejalashtirilmoqda – 13%, O’zMB – 19%, kreditlar va lizing operatsiyalari – 13%.

Boshqa majburiyatlar – 53%ga o’sish rejalashtirilmoqda va 1,13 trln. so‘mni tashkil etadi.



«Turonbank» ATBning 2024-yil uchun moliyaviy resurslari 5 250,0 milliard so‘mni tashkil etadi. Shundan 1 trln. 156 milliard so‘m – kredit liniyalaridan, 300,0 milliard so‘m – Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasidan, jismoniy va yuridik shaxslardan 1,100 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘larni jalb etish rejalashtirilmoqda.

3. Ustav kapitali

Bankning umumiyligi 2023-yil oxiriga kelib 1 924,6 mlrd. so‘mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. 2024-yilga kelib ushbu raqam 2 310,2 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha qoldiqning o’sishi – 20%ni, rezerv bo‘yicha 15%ni tashkil etadi. Ustav fondi davlat hisobidan 150 mld. so‘m ajratilishi va soffoyda 103,5 mld. so‘mga oshirilishi hisobiga oshiriladi.

Bankning faol mijozlari soni 2023-yil oxiriga kelib 25 000 nafarga yetadi, 2024-yilga kelib esa ushbu raqam (prognoz) 30 000 taga yetadi. O'zgarish 20,0 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Bankda bank xizmatlari ko'rsatish ofislari soni 71 tani tashkil etadi, 2024-yilga kelib esa ko'rsatkich (prognoz) 100 taga yetadi. O'zgarish 29 taga teng bo'lishi kutilmoqda.

VII. 2024-YILGI DAROMADLAR VA XARAJATLAR PROGNOZI

1. Daromadlar

Soffoiz daromadlari 2024-yil oxiriga kelib kredit portfeli o'sishi hisobiga ta'minlanadi va 520,7 mlrd. so'mni tashkil etadi. Boshqa banklardagi mablag'lari – 48% o'sish. Foiz xarajatlarining asosiy qismi jismoniy shaxslar va korporativ mijozlarning muddatli depozitlarini jalb etish bilan bog'liq xarajatlarga to'g'ri keladi. Xarajatlarning o'sishi 42%ni tashkil etadi. Banklararo xarajatlar 271,5 mlrd. so'mni tashkil qiladi.

Sof komission daromadlar – foyda olishni oshirish uchun tranzaksiya bankingi, vositachilik haqi, valyutadagi daromadlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Sof foizsiz daromadlar 456 mlrd. so'mni tashkil qiladi. Ko'rsatilgan xizmatlardan va vositachilikdan daromadlar 175,1 mlrd. so'mni tashkil etadi, xorijiy valyutadagi foyda esa 89,3 mlrd. so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

2. Xarajatlar


Operatsion xarajatlar ATga (kritik segment) xarajatlar salmoqli darajada oshadi, HR – jami operatsion xarajatlardan 56%.

Rezervlar – ehtimoliy muammoli kreditlar zaxirasi, ayniqsa KO'B uchun nazarda tutilgan. Budjetga kiritilgan rezervlashga sof xarajatlar darajasi qariyb 115 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Soffoyda yil oxirigacha 35,5 mlrd. so'm miqdorida bo'lishi rejalashtirilgan. 2024-yilda ushbu ko'rsatkich (prognoz) 103,5 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan barcha iqtisodiy normativlar belgilangan normativlar darajasida bo'lishi nazarda tutilgan.

«Turonbank» ATB
Boshqaruvi Raisi



Ch.S.Mirzayev

Ekspert guruhi bilan kelishildi:

**Guruh rahbari, Boshqaruv Raisining
birinchi o‘rinbosari**

A.T. Tashev

**Ekspert guruhi rahbari o‘rinbosari,
Boshqaruv Raisi o‘rinbosari**

S.T. Kaldibayev

Ekspert guruhi a’zolari:

**Moliya masalari direktori
(CFO-Chief Financial Officer)**

T.X.Axmedov

Bank yuridik xizmati boshlig‘i

F.F.Maxmudov

Komplaens nazorat departamenti direktori

T.M.Jabbarov

Risk departamenti direktori

D.A.Toshpulatov

Loyihalarni boshqarish ofisi rahbari

F.A.Ismailov

Xodimlarni boshqarish (“HR”) departamenti direktori

N.I.Tangniberdiyev

**Monitoring va nazorat qilish departamenti
(Middle office) direktori**

D.G’.G‘ayratov

**Muammoli aktivlar bilan ishlash
departamenti direktori**

Z.N.Boboyev

**Kichik va o’rta biznes
departamenti direktori v.v.b**

R.Sh.Fayziyev

Chakana biznes departamenti direktori

E.B.Vaxabov

**Moliya bozorlaridagi operatsiyalar
departamenti direktori v.v.b**

B.B.Vasixanov

Korporativ biznes departamenti direktori

A.N.Muradov

**Filial tarmoqlarini boshqarish
departamenti direktori**

Sh.E.Bozorov

**Axborot texnologiyalari departamenti
direktori v.v.b.**

X.X.Kulmatov

Operatsion departamenti direktori

D.M.Nazarova

**Mijozlar servisi va marketing
departamenti direktori v.v.b.**

Z.M.Tadjiyev

**Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish
boshqarmasi boshlig‘i**

M.J.Mo‘minov

2024 йилга мүлжалланган молиявий Режа

млн.сўмда

Кўрсаткич номи	01.04.2024	01.07.2024	01.10.2024	01.01.2025
Активлар				
Кассадаги нақд пул ва бошқа тўлов ҳужжатлари	608 670,5	663 294,8	702 312,1	780 346,8
Банкнинг Марказий банкдаги ҳамда бошқа банклардаги маблағлари	1 517 085,2	2 068 752,6	2 344 586,3	2 758 336,8
Қимматли қоғозлар ва уларга қилинган инвестициялар	185 166,0	258 594,0	277 749,1	319 251,8
Кредит ва лизинг операциялари	11 957 425,8	12 360 485,1	13 032 250,6	13 435 309,9
Корпоратив	4 750 206,2	4 910 325,5	5 177 191,1	5 337 310,4
МСБ	4 670 396,0	4 827 825,1	5 090 206,9	5 247 635,0
Чакана	2 536 823,6	2 622 334,5	2 764 852,7	2 850 363,6
Яратилган захира колдиги	188 639,0	232 171,1	275 703,2	290 213,9
Асосий воситалар ва номоддий активлар	515 327,2	634 248,9	753 170,5	792 811,1
Бошқа активлар	1 339 301,5	1 369 740,1	1 445 836,8	1 521 933,5
Жами активлар	16 122 976,3	17 355 115,5	18 555 905,4	19 607 989,9
Мажбуриятлар				
Жами депозитлар	3 951 148,8	4 305 739,1	4 559 017,9	5 065 575,4
<u>Шундан, талаб килиб олингунча депозитлар</u>	1 289 440,6	1 405 159,7	1 487 816,1	1 653 129,0
Корпоратив	495 300,0	539 750,0	571 500,0	635 000,0
МСБ	405 786,5	442 203,3	468 215,2	520 239,1
Чакана	388 354,1	423 206,4	448 100,9	497 889,9
<u>Муддатли депозитлар</u>	2 661 708,2	2 900 579,4	3 071 201,7	3 412 446,3
Корпоратив	991 522,2	1 080 504,9	1 144 064,1	1 271 182,3
МСБ	293 867,6	320 240,3	339 078,0	376 753,3
Чакана	1 376 318,4	1 499 834,2	1 588 059,7	1 764 510,8
Бошқа банклар ва молиявий ташкилотларнинг ҳисобварақлари	2 132 299,5	2 659 557,2	2 921 884,1	3 246 537,9
Кредит ва лизинг операциялари бўйича мажбуриятлар	7 052 119,8	7 252 300,8	7 652 300,8	7 759 128,0
Бошқа мажбуриятлар	909 952,6	1 042 531,2	1 267 715,5	1 226 507,2
Жами мажбуриятлар	14 045 520,8	15 260 128,2	16 400 918,2	17 297 748,4
Хусусий капитал	2 077 455,5	2 094 987,2	2 154 987,2	2 310 241,5
Устав ва қўшилган капитал	1 635 000,0	1 635 000,0	1 635 000,0	1 725 257,8
Захира капитали	319 455,5	319 455,5	319 455,5	319 455,5
Тақсимланмаган фойда	123 000,0	140 531,7	200 531,7	265 528,2
Мажбурият + капитал	16 122 976,3	17 355 115,5	18 555 905,4	19 607 989,9

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yilga mo‘ljallangan

Biznes-reja loyihasini huquqiy ekspertiza o‘tkazish yuzasidan

X U L O S A

2023-yil 27-noyabr

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi 2733-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning 3.1.bandiga muvofiq, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yilga mo‘ljallangan Biznes-reja loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quyidagilar

A N I Q L A N D I :

Taqdim etilgan Biznes-reja loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, “Turonbank” ATB Ustavi, ichki me’yoriy hujjatlar talablari va tartib-qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Biznes-reja «Turonbank» ATB 2024-yilda amalga oshirishni rejalashtirayotgan chora-tadbirlarni, shuningdek 2024-yilgi Bankning moliyaviy rejasini o‘z ichiga oladi.

Biznes-rejani Kirish, Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi, “Turonbank” ATB asosiy ko‘rsatkichlari, 2024-yilda bank transformatsiya jarayonlari, 2024-yil uchun balans moddalari, 2024-yil uchun daromad va xarajatlar prognozi va Ilovalar belgilab beradi.

“Turonbank” ATB Boshqaruvi tomonidan ishlab chiqilgan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yilga mo‘ljallangan Biznes-reja loyihasi qonunchilik hujjatlariga zid emas.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Biznes-reja loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

X U L O S A Q I L I N D I :

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yilga mo‘ljallangan Biznes-reja loyihasi yuqoridagi qonunchilik asosida ishlab chiqilganligi va boshqa qonunchilik hujjatlariga zid emasligi, qonunchilik texnikasi qoidalariga, havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliligi va maqsadga muvofiqligi qayd etilsin.

Mazkur loyiha ko‘rib chiqish uchun Ekspert guruhi muhokamasiga taqdim etilsin.

Bank yuridik xizmati mutaxassisini

D.Valiyev